

SHAHRIYOR SHAVKAT

RUHIM
QUSHLARI



KITOBIM



BIRINCHI

SHE'RLAR

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

SHAHRIYOR SHAVKAT

RUHIM QUSHLARI

She'rlar

Muhammad Siddiq kutubxonasi

[@Muhammad_Siddiq](#)



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

Nashr uchun mas'ul:
Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi

Mas'ul muharrir:
Usmon AZIM

Ushbu mo'jaz to'plam yosh shoir Shahriyor Shavkatning olovli she'rlarini o'ziga jamlagan. Millat, yurt dardini, g'amini, tashvishini jo'ngina aytib qo'ya olmaydigan shoir "pahlavon o'tgan" ajdodlariga munosiblik qadamlarini o'z-o'zini imtihon qilishdan boshlaydi. Shuning barobarida zamondoshlariga baland ovozda da'vat aytadi, ko'ksiga bir urib, eldoshlar yonida bor ekanini bildiradi go'yo. To'plam she'riyat ixlosmandlariga manzur bo'ladi, undagi she'rlar bilan tanishganlar Shahriyordan yangi kitoblarni kutib qoladilar, degan fikrdamiz.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi she'riyat kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6779-2-0

© Sh. Shavkat, 2020
© "Adabiyot", 2020

SO'ZNING ROSTI

Notanish odamning yozganlari bilan tanishib chiqish, "to'rt og'iz" so'z yozib berish majburiyati bilan bo'lsa, juda mas'uliyatli ish. Chunki ona Adabiyotning ko'ziga qarab, hami-sha rost gapirgini keladi. Men uzoq yillardan buyon Adabiyot ostonasida turib, unga halol xizmat qilishga urindim. Adabiyotni ham onam-day mo'tabar bir xilqat bildim va shu sabab, bilib-bilmay, o'zimning yozganlarimga ham, birovlarining asarlariga ham, aqlim yetguncha, o'z bahosini berishga uringanman. Ammo bu dunyoda yuzing-ko'zing degan gaplar ham bor. Shu sabab, birovlarining yozganlari haqida halol so'z aytish juda katta mas'uliyatni – hatto ozgina jasoratni ham talab qiladi.

Ammo Shahriyor Shavkatning she'rlarini o'qiganimda, bu haqida hatto o'ylamadim ham. Faqat uning she'rlarini yayrab o'qidim.

Shahriyor – shoir. Shubhasiz, shoir.

U she'r yozishni biladi. Ko'p narsani o'z-lashtirgan; yuragiga, ruhiga singdirgan.

Adabiyotimizda so'zni shunday hassos his qiladigan, zo'riqmasdan – erkin yozadigan shoir paydo bo'layotgani bilan barchani qutlayman.

Usmon AZIM,

O'zbekiston xalq shoiri

SAHIFALAR

Satrlar yastangan sariq sahifa,
 Xo'rsin-u, yarqirab Cho'lponni ko'rsat!
 Tunning-ku borligi ayni haqiqat,
 Sen kunduz atalmish yolg'onni ko'rsat!

“Amirim!..”

Bo'zlaydi cho'tir Oqsaroy,
 Qo'rg'oshin yutmagan qo'rg'onni ko'rsat.
 Tashnakom giyohlar choy so'raydi:
 “Choy-y!”
 Qumdan bosh ko'targan qumg'onni ko'rsat.

Tag'in qo'l uzatsa shirintomoqlar,
 “Shakkarday til bila...” tuzdonni ko'rsat.
 Sen ikki yuzimni qattiq quchoqlab,
 G'izollar ravzasi – rizvonni ko'rsat!

Vodarig',
 chuvalchang chaynadi timsoh,
 Sirin boy bermagan sirtlonni ko'rsat!
 Tishlarim tilloga botmadi yumshoq,
 Hay dedim, nasibam – yovg'onni ko'rsat.

Boshimni changallab uchgan qarchig'ay,
 Balandroq ko'targil, osmonni ko'rsat!

Men o'zim qutqaray Alpomishni-yay,
Boychibor,
boshla yo'l,
zindonni ko'rsat!

**“YO OTA, DEB KO'TAR,
EY YODGOR”**

Kuch ber qo'lga, bilakka kuch ber,
Kim o'zini yov kabi tutgan,
Kim do'st bo'lib yovdanam o'tgan.
Yo ota, deb ko'tar, ey Yodgor!
Yo ota, deb ko'tar, ey Yodgor,
Sening otang Alpomish o'tgan!

Xo'rlik bekor, haqorat bekor,
Kim shoh bo'lib, elin unutgan,
Kim qultoylik yengini tutgan.
Kim oshini indamay yutgan,
Kim boshini dorlarga tutgan,
Yo ota, deb ko'tar, ey Yodgor!
Ajdodlaring sarbador o'tgan.

Otang bozor, ham onang bozor,
Dalang mozor, ostonang mozor,

Sandiqlarni bosguncha mog'or
 Kim miltig'in qo'rqib berkitgan,
 Kim qo'shnisin uyini titgan,
 Kim yov uchun og'asin tutgan,
 Yo unutgan, yo esda tutgan,
 Yo ota, deb ko'tar, ey Yodgor!
 Ajdodlaring "bosmachi" o'tgan.

Bugun boshda ozodliging bor,
 Yaxshi ajrat yaxshi-yomonni,
 Sendan boshqa ko'tarolmaydi
 O'n to'rt botmon
 O'zbekistonni!
 Kim hali ham haqni berkitgan,
 Kim pisinib, vaziyat kutgan,
 Kim o'z yo'lin vaqtida tutgan,
 Kim Vatan deb baralla aytgan!
 Yo ota, deb ko'tar, ey Yodgor!
 Ajdodlaring pahlavon o'tgan!



* * *

Yig'ildi, sochildi, eshildi ushshoq,
 Chayqalib tingladi ko'l-u nilufar.
 Kuylagil,
 boy bo'lsin man kabi qashshoq,
 Ay umri – zeb-u zar,
 Kunlari – guhar!

Maning umrim nima,
 Kukunmi, kulmi,
 Yoxud oq matoga sachragan g'ubor?
 Yig'ib olsin uni musiqa ilmi,
 Ay ruhi – musiqor,
 Sochlari – chiltor!

Besh mahal qalamga to'qnashdi barmoq,
 Har safar bir misra –
 Muxammas yozdik.
 O'qib ol duoga qo'l ochganim choq,
 Ay harir ovozlik,
 Suhbati nozik!

Boshimda yigitlik ayyomi nozir,
 Mo'ysafid xayollar tutmoqda attor.
 Shiddatim – podsho-yu,
 Muddatim – vazir

Va o'zim ro'zador,
Visoling – iftor!

Maning umrim fuzul hisga hamohang
Qadahdir sharobin rangi gunogun.
Uni no'sh etmoqda girdobi ohang,
Ay vasfi – arg'anun,
Firoqi – nog'un!

BOLALIK

Yomg'irlarga uzoq termulib
Peshayvonda yotgan bolalik.
Singlisiga choponin berib,
O'zi sovuqqotgan bolalik.
Yarim-yalang, daryo yoqalab
Ninachilar quvgan bolalik.
Oftobaga har kun ertalab
Erinib yuz yuvgan bolalik...

Sigir boqqan, ko'kala chivib
Yarim-yuluq qo'shiqlar aytgan.
Soyasining ortidan quvib,
So'ng soyasiz uyiga qaytgan.
Uzangiga oyog'i yetmay,
Qovog'ini uygan o'jarlik,

Qashqasining yonidan ketmay,
O'g'irratib qo'ygan o'jarlik...

Bir qoracha qizning ustidan
Borar ekan dahanaki jang,
Singan tishin yerga tuflagan
va hech kimga aytmagan bo'shang...
Bobosining soqolin sanab,
Muzqaymoqlar undirgan shovvoz.
Otasining do'ppisin "to'nab",
Chumbuliga qo'ndirgan shovvoz.

Bolalik, bu – qo'ng'iroq. Kirish!
Partadoshning o'ng'aysiz didi.
Ko'ylagingga siyoh tomdirish
Va yap-yangi kitoblar hidi...
Kenja botir, Gulliver, Gerda –
Oqshom oldi kutilgan ermak.
Bolalik, bu – qachon, qayerda
Tugagani noma'lum ertak...

XIVA

Suzgil, ey,
 Mudragan moziyni chayqat,
 Elt bizni najotga, Nuhning kemasi!
 Feruzdan, Munisdan, Ogahiydan ayt,
 Ey turkiy tilimning tirik shevasi!

Ey, jo'mard bobolar tiklagan bino,
 Fozillar silagan naqshinkor sutun,
 Pahlavon Mahmudlar simirgan havo,
 Ey, dunyo ahliga murabbiy bu dun,
 Nihoyat, menga ham etibdir nasib
 Bir tutum tuprog'-u, bir yutum suving!
 Ey, harir sabolar, satrimda esib,
 Dag'allik uniqqan fe'limni yuving...
 Nechuk o'rtamizda ijtinob, kadar?!
 Xiva,
 devoringdan sukut o'qirdim.
 O'ttiz uch zinadan yelkangga qadar
 Vazmin borarkanman, tasbeh o'girdim...

O'ylasam, yashabmiz faqat gap sotib,
 A'yonlarga huquq,
 xonlarga qulluq...
 Sal kengroq bo'lmabmiz, buning isboti –
 Ho'v Kalta Minorning cho'girmasi yo'q!..

Ammo sen muhtasham, mangu badavlat,
 Boshingda zargaron tahsin elaklar.
 Hamonam nuroniy ko'changda savlat,
 Hamonam imonda shotutyuraklar...

Suzgil, ey,
 Mudragan moziyni chayqat,
 Elt bizni najotga, Nuhning kemasi!
 Feruzdan, Munisdan, Ogahiydan ayt,
 Ey turkiy tilimning tirik shevasi!

* * *

El bilan ko'pkari borgan dam,
 Yonma-yon tulporda turgan dam,
 Bir nomard chavandoz yiqqandi,
 Buvam xo'p buralab so'kkandi.
 Aldamas bizni bu qamishlar,
 Qaysi bir dostonda demishlar:
 "Oshingni yesa-da, mard yesin,
 Boshingni yesa-da, mard yesin!"

G'animga tik qarar fursatda,
 Qo'rqqoqlar g'ujunar xilvatda.
 Borarkan ayovsiz tilkalash,

Yuragi baquvvat yelkadosh,
 Ko'ksiga bir urib bajur'at,
 Yoningda turishim shart, desin,
 "Oshingni yesa-da, mard yesin,
 Boshingni yesa-da, mard yesin!"

Mabodo, janggohning burchida
 Yarador yotsang-u, lek chidab,
 Pisand ham qilmasdan titroqni,
 Qo'lingda tik tutsang bayroqni –
 G'animlar sardori – azamat:
 "Hey, o'g'lon! Yuzini art!" desin,
 "Oshingni yesa-da, mard yesin,
 Boshingni yesa-da, mard yesin!"

Tig' kutib chinakam jo'marddan
 Murdangni qizg'ansang nomarddan
 Yo agar aylanib charxi-shar,
 Sen bo'lsang janggohda muzaffar,
 Shafqat et asirlar joniga –
 Qaytargin onalar yoniga!
 "Oshingni yesa-da, mard yesin,
 Boshingni yesa-da, mard yesin!"

VAHIMA

Kimdir birdan chinqirdi og'ir,
Payqaganlar o'tishdi chetroq.

"Bu nimasi?

Metroda shoir!"

Aslida-chi?

Shoirda metro!

O'ta xavfli ko'zlari uning,

Qadamlari – shubhali tuyuq.

Eng yomoni –

Ehtiyot bo'ling,

Uni hech kim tekshirgani yo'q...

O'qdorini qator teribdi,

Eng ishonchli qurol bilib

Ijodni.

Ko'kragida olib yuribdi

Atomdan kuchliroq

Adabiyotni!..

Davomimi?

Bundan-da dahshat!

Bir xabar jaranglab ketadi:

"Eshiklar yopilar,

keyingi bekat –

Alisher Navoiy bekati".

YOLG'IZLIK

Shamlarni yoq.
Maktub – stolda.
Maktubni yoq xijolat qilmay.
Tasvirimni chizib xayolda,
Bir lahza jilmay...

Musiqa.
Yarqiroq g'urubdan
Vujudimga o'rmalar farah,
Chayqatib, chayqalib turibman –
Qo'limda qadah!..

Barmoqlarim botar, pushtirang
Libosing chirmashgan belingga.
Avval yerga qaraysan arang
Va menga...

Yelkamdani sirg'alar qo'llaring,
Atringga liq to'ladi o'pkam.
Menga qanday jodu yo'llading –
O'pганиm-o'pгани?!

Butun umr yashashga shoshdik,
Kipriklardek yaqindir visol.
Bir lahzada mangu tutashdik –
Shu holingda qol...

* * *

Sollanar shotutning barglari,
Shaharning uyqusi bug'lanar.
Kishvarim,
Savsarim,
Qaysarim,
Yelkamni keltirdim –
Yig'lama!..

Banoras bulutlar bir sipo,
Tomchilar havoda tig'lanar.
Shundog'am afsusim behisob,
Yelkamni keltirdim –
Yig'lama!..

Xayolning sochlari
sarsari
shamolning shavqida dog'lanar.
Ey maning ko'zyoshi kavsarim,
Yelkamni keltirdim –
Yig'lama!..

Adirda aprelning naysoni
Taqmoqda sabuhiy sirg'alar...
Shabnamim,
G'izolim,
Sha'bonim,
Yelkamni keltirdim –
Yig'lama!..

* * *

Siz yomg'irni yaxshi ko'rasiz,
 Tinglaysiz tomchilar navosin,
 Ammo nechun bilmaysiz hanuz
 Yuragimning ob-u havosin?!

Siz yomg'irni yaxshi ko'rasiz,
 Men Betxoven emasman, afsus,
 Ko'zingizda notalar suzar,
 So'z oqadi tomirimda, So'z!

Bilamanki, yomg'irdek kelib,
 Bir inja, bir foram, bir nafis,
 Yuzimda, labimda sirg'alib,
 Kuy chalmaydi
 Barmoqlaringiz!..

Bilamanki, barchasi behud,
 Behudadir hislarim shavqi,
 O'rtamizda tafovut mavjud,
 Tafovutki, sukut va shovqin...

Kechikkanman, bo'lar ish bo'lgan,
 Sizda shodlik, menda esa dard.
 Ko'nglingizni mahv etib olgan
 Mendan avval afsungar Motsart!..

Anglashimcha, barchasi tamom,
 Ko'nglingiz boshqaga erimas,
 Siz yomg'irni yaxshi ko'rasiz,
 Motsartni,
 Notani,
 ...menimas!

* * *

O'tar o'z baxtining bahridan
 Javonda "Navoiy", "Koshg'ariy".
 ...Bir qaro sabuhning bag'rida
 o'larman –
 sannaydi
 sochlaring...
 Yig'ilur g'arib-u g'urabo,
 Ruhimni yelpiydi muazzin.
 Burchakda yig'laysan, dilrabo,
 tulavzo,
 besado
 va hazin...

Farishta –
 (libosi oq emas)
 Yonimdan jilmayib o'tar jim.

Kimdir va'z o'qiydi basma-bas,
Bu ne sas?
Topilmas
mutarjim...

Zil-zambil yodimni qoldirib,
Ketarman. Demangiz ortiq so'z!
Mozorim boshida o'ltirib,
Qatra nur
yig'layur
shafaqtus...

Gapimni ko'tarmay yurganlar
Tanimni ko'targay yelkada.
Bir qayta o'qilur she'rlarim
Giloslar gullagan o'lkada...
O'larman.
Sannaydi
sochlaring!..



* * *

Bir harir zamharir kezar yurakda,
Isinmoq istaram ko'zlaring ichra.
Vassasiz qarlug'och bo'lsam kerak-da,
Yuribman samorang borliqqa sachrab.

Bir sitam istaram anduhi totlig',
Lojuvard iztirob chulg'asa butkul.
Andalib gunohlar aylasa qullug',
Aldanib-alidanib gul o'lsa ko'ngul.

Bir hazin muazzin tovushi chorlab,
Dunyoga kelganim rost bo'lsa agar,
Xuftonda erigan yaldoyi qorlar
Libosi ko'nglumga mos bo'lsa agar,

Nechuk suv ichinda turaman chanqab,
Nechuk o't bag'rinda muzlayman, axir?
Nechuk och umidga umrimni tirab,
Beta'ma shaxsimdan topaman tahqir?!

Bir xoli zardoli soyasini ber,
Ko'zlaring taftin ham unutma, qumrim,
Qaymoqday quyilsin xayyomona she'r
Va mangu tuyilsin shu lahza umrim...

* * *

Quyundek aylanur idishda qahvo...
Shaharning ko'ziga qo'na boshlar chang.
Deraza ortida quyuuq mojaro –
Boradir kun va tun o'rtasida jang...

Men seni o'ylayman, g'izolim!

Kiradir jangohga oy qo'shinlari,
Qarolig' urilur ahli nujumga.
Zulumot ko'ksini chaqmoqdek yorib,
Darg'azab bulutlar o'tar hujumga!

Men seni o'ylayman, g'izolim!

O'jar tun sulhga ko'nmaydi chog'i,
Kunchiqar tomonga yo'llaydi josus.
Ilinib qoladir oying o'rog'i
Tillorang zardoli shoxiga tuyqus...

Men seni o'ylayman, g'izolim!

Ko'zimdan jilmaydi munis qiyofang,
Baribir diydoring uzlatga kotib.
Baribir tinmaydi bu muqaddas jang,
Baribir zardoli ostida yoti-ib,
Men seni o'ylayman, g'izolim!

MAG'LUB DARG'A

Uyg'ondim.
 Ko'zimga urildi quyosh.
 Sho'rlangan o'pkamda zo'riqdi nafas.
 Tepamda yot bayroq tebranar yuvosh,
 Bildimki, bu kema meniki emas...
 Kapitan!
 Men hozir qaysi bo'lmada,
 Qaysi tog'orada yotibman pisib?!
 Baqirdim. Ovozim?!
 Yo'q-yo'q, bo'lmadi!...
 Urindim, qo'zg'alish etmadi nasib.
 "Burgut"ni chorladim.
 Kelmadi. Demak,
 Kechagi to'fondan to'qilgan qafas.
 Bildimki, jamoam – ummonga yemak...
 Bildimki, bu kema meniki emas!..
 Meniki emasdir endi ozodlik,
 Meniki emasdir saxovat, karam.
 Ne bo'lsin bu fursat ruhimga shodlik –
 Meniki emas-ku kapitanlik ham?!
 Shu bayroq tikilgan kema asosi
 Jismimga chilvir-la bog'lanmasaydi,
 Bolta-yu qilichning hovurin bosib,
 Ketardim o'z kemam tomonga qaytib!..
 Ko'ksimga mahkamroq o'ralar arqon.

(Murdani dengizga otarlar, demak...)
Men hozir. Mana, bas!...
Tupuraman qon!
Men, axir, kemamga qaytishim kerak!

Baribir kemamga qaytishim kerak!.

BARS

Yoqutdek muallaq osmon tagidan
Kukundek sochilur qorlar basma-bas...
Pahlavon cho'qqilar kekirdagiga
Sullonin botirib borayotir Bars!

Yunglari sidirar kuzning qorini,
Nafasin taftidan eriydi xarsang.
Hansirab tashlaydi panjalarini,
Ko'zlari: Tog'larni teshib yuborsang!

Deysizki: "O'ljaning dardida dastlab
Tamshanib yutingan laxta-laxta qon,
Ohuning tomog'in xayolda rostlab,
Larsillab odimlar cho'qqilar tomon!"

Yo'q!
Mutloq tashvishi tirikchilikka

Tiriklik ma'nosin alishmagan u!
Bormoqda boshqa bir maqsadda tikka,
Bormoqda, boshqadir ishtiyoq, ruju!

Ho'v-v o'sha yuksakda, erk istagida
Ovozi toshlarga chizganicha darz,
Vallomat cho'qqilar kekirdagiga
Panjasin botirib, o'kirmoqchi Bars!

Toki demasinlar uni qarigan,
Toki bilib qo'ysin dushman-u qondosh!
Oqsoqol tog'larning yelkalarida
Bitta Bars yashaydi ularga yondosh!..



* * *

Ko'rdingizmi, qayta ko'rishmoq
Azobining ko'zyoshi totlig'.
Na tazarru, na-da urishmoq
Zavq bermaydi ko'ngilga ortiq.

Ko'rdingizmi, parvozdan karaxt
Burgutlarning qismati shunday –
Qancha baland uchganin faqat
Qulayotgan vaqtda tushungay!

Ko'rdingizmi, Xudo mehribon,
Bizga berdi mayin ayriliq,
Sizdan sovib ketmadim hamon,
Isboti shu –
So'zlarim iliq...

Mendan o'tdi. Iqrorman. UZR.
Bilishimcha, yuragingiz g'ash.
Ko'rdingizmi, naqadar huzur
Kimnidir jim qizg'onib yashash?!

* * *

Parvoz etar momaqaymoqlar
Shamollarda tebrangan ko'yi,
Jim yotaman maygi o'tloqda,
Kaftlarimga boshimni qo'yib.

Oyday sokin, quyosh kabi tinch
Sezim qoplar yurak qa'rini.
Bezayotir suvoqrang o'pich
Qashqadaryo sohillarini.

Simiraman quyuq shamolday
Idrokimga sig'mas tuyg'uni:
"Men dunyoni nega yomonlay,
Axir, Tangrim yaratgan uni?!"

Manov maysa, mana bu tog'lar –
Bari-bari menga berilgan.
Hamon uchar momaqaymoqlar,
Oyoqlarim chalishtirilgan.

Bir yonda o't, bir yonda pichan –
Hal qiladi to'riqning didi...
Suv tubidan dimog'imgacha
Suzib kelar baliqning hidi.

Qo'zichoqlar shovqinin
epkin
keltiradi shuurim taraf.
Men yo-o-otibman,
yuragim sokin,
Jim-m yotibman Xudoga qarab!..

Parvoz etar momaqaymoqlar..

* * *

Sog'inganda Rumiyni o'qing,
Xilvatgina uyda, jimgina.
Bilmam, sizga qay biri yaqin:
Axmatova yoki Marina...

Sog'inganda, Pushkinni o'qing,
"Yiroq sohil va o'zga hayot..."
Turku tinglab, ro'molcha to'qing,
Ovuntirsin sizni xayolot.

Istasangiz, Lermontov, mana –
"Demon" degan zo'r dostoni bor.
Tamaraning ko'ngli – xazina,
Ammo sho'rlik
Iblisga xushtor...

Manziliga yetmaydi qarg'ish,
G'azablanish – xunuk qoida.
Surat yoqish, xatlarni yirtish,
Sizga aytsam, bermaydi foyda.

Yana shu gap. Bayronni o'qing,
Boburni yo
Devoni Mashrab...
Bir xoinni o'ylashdan ko'ra
Tuyuqlarni yodlamoq sharaf!

Sho'ng'ib keting. Oson yo'li shu.
Bir ummonmi yoki bir yutum.
Masalan, men. Ko'zni yumdim-u,
Boshqalarni shunday unutdim...



* * *

Ruhimiz chirmashib nuri hilolga,
Hurimiz mahfilin etsa ziyorat,
Yig'lasa, yoshidan bitsa ziroat,
Kuylasa, kuyidan tommasa g'ashlik.

Ruhimiz tirmashib sarob savolga,
Qidirsada dunyodan boshqacha dunyo,
Sidirsada sabri-yu ahdini xulyo,
Yiqilgan yeridan sudrasa dashtlik.

Ruhimiz suyanib qolsa xayolga,
Nay bersa, kuy bersa fuzul qumog'lik:
"Yor, sandan uzog'lik – jondan uzog'lik,
Yo'lingda muzladim, yonib otashdek!"

Ruhimiz evrilib siniq sopolga,
Bor, ana, dunyoni to'kdim deyolsa,
Rindona ridoni so'kdim deyolsa,
Demakkim, tuproqqa qayta tutashdik...

Ruhimiz chirmashib nuri hilolga,
Hurimiz mahfilin etsa ziyorat...

* * *

Sening ko'zyoshlaring qancha begunoh,
Mening dil hushlarim asosi anduh.
Men – Qadr kechasi may ichgan gumroh,
Sen – Kavsar suvida sug'orilgan ruh!..
Ming yilki, husningga tashilur tashbeh,
Shaffof ko'zlaringdan o'qilur oyat.
Sen – iymon qo'lida aylangan tasbeh,
Men – murshid bilmagan yarim hikoyat.
Sen – qadah ichinda yaltiragan may,
Hanuz topolmasdan ichmoqqa jur'at,
Turibman o'zi yo'q aybing kechirmay,
Bu ne iltifotdur, bu ne xusumat?!
So'ngsiz haqoratga roziman, magar
O'zi barchasini o'rniga qo'ygay.
Ay, hatto tushlari bokira dilbar,
Qaysi gunohingga jazo bo'ldim-ay?!



* * *

Vaziyat ustiga yiqildi reja,
Muzaffar ash'orlar etildi g'orat.
Fasl bir aksirib oldi, natija:
Kechagi sajdalar bugun – haqorat!..

Yallolar bitganda qadahlar bo'shab,
Fosiqlar yugurmish tusab tahorat,
Podshohlar o'zgardi, maddohlar o'sha,
Kechagi sajdalar bugun – haqorat!..

Vatan, bu – chopondir yaqosi sarg'ish,
Yo qayta bo'yoqqa kirgan imorat.
Asosdan ko'chmishdir ranglarga taftish,
Kechagi sajdalar bugun – haqorat!..

Avomning azaliy tarkiboti jo'n –
Yalqovlik bijg'igan ongdan iborat.
Quroqqa qo'shilar tunov kungi to'n,
Kechagi sajdalar bugun – haqorat!..

Har yo'qsil bo'yinga solingan kamand,
Yovqur nigohlardan qochgan harorat.
Qachon biz boricha tan olamiz, tan?
Kechagi sajdalar bugun – haqorat!..

Inchunin, podsholik kulohi og'ir,
 Shart birda nazokat, birda nazorat.
 Ertani o'ylaymiz, ertani axir –
 Kechagi sajdalar bugun – haqorat!..

* * *

Quyosh ketganida g'urubga enib,
 Zamin duch keladi boshqa savdoga:
 Butun Toshkent uxlab qolganda, seni
 O'g'irlab ketaman
 Qashqadaryoga!
 Hurkitib Sirdaryo laylaklarini,
 Jizzaxda tulporga to'qnashadi tong!
 Samarqand bahoriy ko'ylaklarini
 silkitar
 va borliq ura boshlar bong!
 Ho'-o', undan u yog'i – tuproq ostidan
 Samoga o'rlagan matonatimdir!
 Eng baland hisoriy qoya ustidan
 Ko'rganing – jaydari saltanatimdir!
 Mana shu –
 Iskandar navkarlarini
 Qilichdan o'tkazgan ori zada el!
 Mana shu –
 Muqanna kabi bag'rini

Janglarga peshlagan olovzoda el!
 Mening tomirimda qaynayotgan qon –
 Jahonning yarmini etib nazorat,
 Tangri inoyati bilan bir zamon
 Muqaddas Turonni qurgan jasorat!
 ...Seni o'g'irladim.

Tushun, barini
 Qonunga muvofiq qilgayman mudom.
 Dunyoning eng go'zal sanamlarini
 Keshga keltirishni buyurgan bobom.

TANOSIB

Ismingni ismimning yonida yozdim,
 Yuzlarin berkitib kuldi tanosib.
 Oqligi yanayam oshdi qog'ozning,
 Tunga oy,
 Suvga soy,
 So'zga kuy
 va kiyimga tugma munosib:

Kechaman. Kunduzsan. Sahar bu – visol.
 Tuproqman. Ildizsan. Ishqimiz – nihol.
 Yaqinman. Olissan, shunga, ehtimol,
 Ismingni ismimning yonida yozdim.

Xayolim havoda suzmaydi yengil,
Na she'r bor, na ohang,
turar iymanib.
Dastavval so'z bo'lgan,
So'z beraman, kel,
Qo'shiqlar to'qiysan qishda kiygani.

Bu safar gullarni uzmayman, kechir,
Izhorim zarqog'oz ostida bo'lmas.
Bu gal may o'rniga jasorat ichir,
Qutulmas baloga qolay, qutulmas...

Shamshirlar boshimga inmasmi ortiq?
Bu achchiq firoqdan bezdim, sirasi –
Jon shirin!
Diydor-chi?
Undan-da totlig'!
Hozircha nasibam – isming shirasi.

Ismingni ismimning yonida yozgil...

* * *

Pastlab uchar burgutlar
Qanotlari horigan.
Boyning qo'zisi o'tlar
Tulning arpazorida.

Qultoyni qo'y, Ultontoz,
Yuragim g'ash, ichim g'ash.
Botirlarim juvonboz,
Mullolarim chilimkash.

Hamon yarim-yortiman,
To el ichra bor ekan
Sudxo'rlikning ortidan
Sutda cho'milgan badan.

Ayo, o'zbek ulusim,
O'zim bo'lay degan xalq,
Avval o'g'lim-u qizim,
Undan keyin ekan xalq.

Yo'q, jigarim, endi bas,
Qozoningni yig'ishtir!
Hurlik to'yib yeyishmas,
Yo'qsillarga berishdir!

Hali-beri bug'doy yo'q,
Mudom tariq eksalar.
Olib yurar bizni Nuh,
Qirilguncha keksalar!..


Pastlab uchar burgutlar
Qanotlari horigan.
Boyning qo'zisi o'tlar
Tulning arpazorida.

* * *

Sen shamol shavqini his etganmisan?
To'lqinlar zarbiga kelganmisan duch?
Ko'zingni quyoshda isitganmisan?
Bo'lajak janglarga to'pladingmi kuch?
Simirdingni qozoq dashtida qimiz?
Turkman tulporida bormi chopganning?
"Manas" dan to'liqib aytganda qirg'iz,
Shiddatga do'ndimi iztiroblaring?
Fuzuliy navosin tutsa malaklar,
Yoydingmi Hazorning bo'yida quloch?
Tushingda uv tortsa bo'riyuraklar,
O'sarmi Orolning girdida og'och?
Mashriqdan mag'ribga tortdingmi ipak –
Irg'itib dunyoning dinorlarini?

Dilingni chulg'asa mardona istak,
Quchdingni Xorazm minorlarini?
Rumiyni ziyorat etdimi ruhing?
Botdimi chaqmoqlar quyuq tumanga?
Qoyadek mustahkam qalb-u shukuhing
Uvishib ketdimi uyg'ur deganda?
Sen anglab yetdingmi uch boshli ajdar
Turonni xotirjam yamlayotganin?
Hovlingda g'animlar ming tuman askar
va qurol-aslaha g'amlayotganin?
Bo'lajak janglarga to'pladingni kuch?
Ko'zingni quyoshda isitganmisan?
Jangoldi duoga ochganda hovuch,
Ajdodlar ruhini his etganmisan?

Bo'lajak janglarga to'pladingni kuch?



* * *

Gar kishan taqsalar qo'limga bir kun,
 Ziyodan to'silsa yovqur ko'zlarim,
 Men bitta-bittalab sanashim mumkin,
 Dastavval sotadi qaysi do'stlarim.
 Qadahlar to'qnashib turibdi hali,
 Nigohlar sirtida do'stona bosim.
 Hozircha ixtilof, nifoqdan nari
 Adoliq topmoqda silliq marosim.
 Baribir bilaman, kimda qaysi o'y,
 Qay sohil ishqida suzmoqda kema.
 Ay, fuzul yuragim,
 Qichqiriqni qo'y,
 Burg'ular oldida sibizg'a nima?!
 Halovat, sen mendan
 umidingni uz,
 Turkular kuylanmas, kulib, hiringlab,
 Turonday vatanni unutgan ulus
 Tariqday ovozni tururmi tinglab?!

Ey turkiy do'stlarim,
 Kemamiz uchqur!
 Yig'ib qo'yilmaydi shamolda yelkan.
 Avvalo, Turonga bir yurak zarur,
 Yurakki, salmog'i Turondan ulkan!

* * *

Kipriklaring og'irlashdi jim,
Ko'tarmoqqa yetmadi kuching.
Yuzlaringga botdi nigohim,
Shunda paydo bo'ldi kulgiching...

Shabnam kabi nurga to'yingan,
Yurak zarbim bilan hamohang,
Bitta-bitta barmoqlaringdan
Tomchiladi yelkamga ohang!

Sharh-u shakli nimadir kuzning,
Noyabrda gulladi ochun?
Shivirladim, ma'suma qizning
Ruhi bo'ylab yugurdi afsun!

Ey, telbalik ichra topganim,
Ey, ko'nglida ojiza jur'at,
Xudo bergan hisni totgani
Odamlardan so'rama ruxsat!

O'z erkimni etgani tahqir,
O'zing ayt-chi, birov haqlimi?
Kulgichingdan olganman, axir,
Sening baxting bo'lish baxtini!

* * *

Shogirdi quchoqlab, yiqitib berdi
 Hech kim tutolmagan Dukchi eshonni...
 “Nahot shu hunarni o’rgatib edim,
 Negayam ishon dim,
 Nega ishon dim?!”
 Chandib tashladilar eshonni butkul,
 Soqoli tuproqni supurdi ilk bor...
 “Ah, sodda fe’lim-a,
 Jaydari ko’ngil,
 O’rtada ustoz-u shogirdchilik bor!”

So’z chikor qilarmi,
 O’qraydi, xolos,
 Tog’lar sovuq qotib ketdi qarashdan...
 “Shogirdim, egningda – ajnabiy libos,
 Bo’yinbog’ bo’yningga juda-a yarashgan...”
 ...men shunday o’yladim,
 Har holda, tarix
 barcha tasmalarni bermaydi shundoq.
 Aralashib ketgan bug’doy-u tariq,
 Kimdan bo’lganini bilmaydi ushoq.

* * *

Qaltiraydi qarshimda yanvar,
 Qo'llaringdan tutaman – olov.
 Ikki yonda soqchi qayinlar,
 Qo'shiq aytib boramiz yayov.

Yelkamga muz tashlaydi archa,
 Sen qiqirlab to'qiysan maqol.
 Kurashlarning tusidan charchab,
 Kuzataman kulgingni xushhol.

O'! Naqadar shirin soniya,
 Ko'zlaringga ko'zim tikarman.
 Farzandimga aytarsan deya,
 Tomog'ingga alla ekarman.

Bu dunyoning nimasi bor, ayt?!
 Ginasi bor, dardi, hasrati!
 Barchasiga boqqancha loqayd
 Senga ulkan sevgi asradim.

Dil asradim, qorong'u kecha
 Osmoningni yoritar porloq.
 So'z asradim atrokday o'jar
 va muqaddas Turon kabi pok.

Vazmin ruhim, tabiatimga
Yo'latmadim ig'voni zinhor.
Dovullarni qamab ichimga,
Etaverdim jahlimni inkor.

Bularni qo'y,
Yanvarni kuzat.
Oppoq qorda yugurar tulpor.
Muz ostida dasturxon tuzab
Kutayotir bizlarni bahor.

* * *

Sen – osmonsan, chashmi charog'on,
Sen – iymonsan, dalili iffat.
Sen – isyonsan fe'li noayon,
Sen – insonsan farishtasifat!

Sening ruhing shaffof bag'oyat,
Muhabbating muazzam sening.
Sen mutlaqo bekamsan, faqat...
Faqat bekam emassan mening!..

* * *

Bir yerda tinch vatan qurmoqchi edim,
 Davrada aylandim tilla qadahdek.
 Yelkamni qushlarga bermoqchi edim,
 O, nasib etmadi menga daraxtlik...

Ismimni chaynaydi sobiq do'stlarim,
 Men xira farahlar allasida mast.
 Kavсарim, hamonam, moviy ko'zlarim,
 Qop-qora daryoga do'nmagani rost.

Men itday ergashdim ko'nglim ortidan,
 Suyanib ho'ngradim tushlarga gohi.
 Oqibat: osmonday yarim-yortiman,
 Ko'zimda beuya qushlar nigohi!

Baribir daraxtga aylanmoqchiman,
 Behuda sarflanib ketmasdan kuchim.
 Aminman, yetarli mendagi chidam
 Boltalar zarbini ko'tarmoq uchun!

Aminman, qirg'oqqa boshini urgach,
 Mung'ayib qaytuvchi to'lqin – bahodir;
 Uning hech nimani etmasdan ro'kach,
 Shiddat-la ortiga qaytishi bordir.

Qaytaman xazonrang saharlaringga,
 Bir dunyo bahorni olib qaytaman.
 Qushlarim, yelkamga qo'narsiz hali,
 Barvasta bir daraxt bo'lib qaytaman!

* * *

Qaydanam adashib keldi shaharga,
 Qaydanam ayladi raqsi nazokat,
 Qaydanam yo'liqdi fohishalarga,
 Falokat...
 Falokat...

Kuzni zo'rladilar.
 Yasanib turgan
 Og'ochlar sochini yuldi, qo'pordi.
 Kuzni zo'rladilar,
 xazon yugurgan
 yo'lakning yuziga supurgi tortib...
 Yig'ladi,
 chinqirdi,
 buzildi husni,
 Haqiqat pinjida yuzin to'sar sir.
 Hech kimi yo'q edi shaharda kuzning,
 na shoir,
 na nosir

va na musavvir.
 Bokira qushlari yuz burdi undan,
 Xurmolar ichiga yutdi murabbo.
 U yig'lab izg'idi shahargi tunda,
 Ust-boshi jiqqa ho'l,
 Umri shalabbo.

Tiz cho'kdi nomusin
 Qabri boshiga,
 Namiqqan sochlari loyga qorishdi.
 O, qanday qaraydi yostiqdoshiga,
 Mazmuni qoldimi uyga borishni(ng).

Hech kimi yo'q edi shaharda kuzning...

* * *

Qo'shotar miltig'i tushdi yelkadan,
 Etikdan sug'urib oldi oyog'in.
 Talab et yo yalin, yoki erkalan -
 Boshqacha bo'lmaydi endi bu yog'i...
 U yovvoyi o'rdak cho'qigan ko'lning
 Tubidan laqqalar sug'urmas endi.
 Shaytondek g'ingshigan chiyabo'rining
 Bo'g'zidan g'ijimlab, do'g'irmas endi.
 Loyxo'rak patining ortidan quvib,
 Tuxumlar keltirmas kuchuklariga.

Eng chuqur kamarga badanin yuvib,
Uchuqlar qo'shmaydi uchuqlariga.
Endi xom yong'oqning to'nidan oqqan
Jigarrang quvlik ham qo'lga xinomas,
Kurashlar avjida yonib, tutoqqan
Qonini qaynatib turmaydi Yofas...
Endi u Jek London asarlariga
Taqlidan hindulik qilmaydi, afsus,
U muhlat bermoqda asablariga,
U to'plash bilan band balchiqdek nufuz...
Hali ham yetmadi quduq tubiga,
Tozarib olishning boshqa yo'li yo'q.
(Kim quyosh oldida to'siq to'qigan,
Har holda, soyani o'ldirmaydi o'q.)
...O'shanda, ming botmon sabr bitar, bas,
Ko'nmaydi tepkning bo'sh yotariga.
Ig'voni, nifoqni, bitta-bittamas,
Qo'shshalab otadi
Qo'shotarida...



* * *

Soyda hilol suzgani-suzgan –
Jilg'alarga nafis nur taqar.
Suv yuzida balqqan yulduzga
Til tekkizib ko'rar qurbaqa.

Shaloplatar qirg'oqni ochlik,
Lux sepilar qamish ustidan.
Sirg'aladi yarim quloqli
Oq suvilon ko'prik ostida.

Hidlab ko'rar yulg'unni qo'zi,
Burun tutar butun oqshomga.
"Bizni yelin qayerda o'zi?"
Ko'zidan suv tomgani-tomgan.

To'y boshlaydi baqalar bexos,
Chigirtkalar tag'in otarchi.
Qum ilonni tushirar paqqos,
Bahonada po'stini archib.

... "Bilishimcha, begona qilgan,
Tug'ilganda o'rovdim chopon".
Onasidan adashib qolgan
Qo'zichoqni qidirar cho'pon.

* * *

Siz –
 quyon yungini yopingan ayol,
 jirkanasiz tirik quyondan.
 “O‘rmonla-ar...”,
 “Dengizla-ar...” –
 Surasiz xayol,
 O‘tolmaysiz u yon, bu yondan.
 Ey,
 Bo‘ri terisin olib kiyingan,
 tirnoqdanam,
 tishdanam voz kech.
 Hayvonot bog‘idan gapirma menga,
 Chin qashqirni ko‘rganmisan hech?
 ... Ey kibor minbarning sodiq notig‘i,
 ko‘rinmasmi qorningiz osti?
 Yurakka botmasmi unvonlar tig‘i,
 toshdaymasmi gohida yostiq?!
 Yo‘qsillar haqida so‘ylar daqiqa
 sizga suv tashiydi yetim o‘spirin.
 Odamlar kutmoqda achchiq haqiqat,
 Nimagadir
 Nutqingiz shirin?..

* * *

Og'ir jang ostidan qaytganda zobit
Shom edi. Kulbasin yoritardi oy.
Qilichday yoshligin ayladi nobud
Savlat-u sumbati ignaday saroy.

U bugun yuvmadi sovutga sachrab
Qarg'ishdek qurigan dushman qonini.
Rukuga bermadi dunyodan ajrab,
Farog'at istagan jism-u jonini.

Qonagan kuragi haqqi-hurmati
Xoin do'stlarini o'ylamadi ham.
Mushtini devorga qattiq urmadi,
Simirib turmadi xotirdan alam.

Davrini, yurtini unutdi bir zum,
Serzarda sarkarda amridan xoli.
Qurigan labiga suv tutdi qultum
Na do'sti, na o'g'li va na ayoli...

Berilib tingladi mayin sukutni,
Berilib ketmaslik uchun sitamga.
So'ng qonib simirdi meshdagi sutni
va uzoq termuldi ma'suma shamga.

* * *

To'lg'onadir bir kosa ummon,
 Shovur kelar bo'sh chig'anoqdan.
 Men hushidan ketgan odamman,
 Ovozing keladir uzoqdan.

Suv yuziga chiqmasimdan oq
 Bor nafasim o'rlaydi ko'kka.
 Cho'kayotgan tirik jon ko'proq
 Tapinadi xasgami, cho'pga -
 Ovozing keladir uzoqdan.

Chiqaman-u, suza boshlayman,
 Bo'ylamaydi najot qoyasi?
 Shaloplatar qo'rquvni imon.
 To'kilar-u oyning soyasi,
 Ovozing keladir uzoqdan.

Sohil o'sar. Atrofi sarxil
 Mevalarning rastasi, bazmi...
 Ishqilib, bu...
 Farishtam, axir,
 Suvparilar fitnasimasmi?
 Ovozing keladir uzoqdan.

Suzaversam yaxshimikin yo
 Ovozing
 yaqindan
 kelgunicha to?!

O'ZGARISH

Aytaylik, yig'loqi binafshalarning
Maktubini o'qib bo'zladim uzoq,
Nimasi o'zgarar chorig'imizning?

Aytaylik, bu xasta, yo'qsil shaharning
Yuragiga yoqib chiqmadim chiroq,
Nimasi o'zgarar chorig'imizning?

Aytaylik, mast edim
va Al-misoqda
Do'zaxni maqtadim,
Jannatda qoldim.
Yo azal kotibin imzosi soxta,
Laylak tumshug'ida izsiz yo'qoldim,
Aytaylik, ismimning ma'nosi boshqa,
Kiprigimning rangi qo'ng'irmas, qizil.
Marmardek yuzlarni cho'qib, taroshlab,
Bafurja rassomlik qildi tanosil,
Nimasi o'zgarar chorig'imizning?

Aytaylik, toliblik to'nini tashlab,
Yollansam, masalan,
Mo'rchaga hammol.
Kuchimning boricha yoqamni tishlab,
Hammamizga insof so'rasam,
Ammo...
Nimasi o'zgarar chorig'imizning?

RUHIM QUSHLARI

Ular uchib ketdi...
Men endi
Miltig'imning changini artib,
Otilmagan o'qlarni tinmay
Taqvimga
 teraman
 batartib.

Shafaqqacha cho'zilib ketgan
Yashil va oq, mayin abrishim...
Telpagimni tepgani-tepgan
Tug'ilmagan qo'zi qarg'ishi!..
Pastlayman-u,
Qo'lim qaltirar,
Sovuq emas!
Asabim g'ijjak!
Qanotlari tig'day yaltirab,
Uchib o'tdi bir gala chittak!
O'rlar bulut bo'g'zimdan hadeb,
Tinmay bosar ko'zim tepkini.
Keksa tog'lar bir nimalar deb,
Xo'rsinadi.
Kelar epkini.
... Ular uchib ketdi.

O'zimni
 Otgim keldi. Nimaga? Nechun?
 Otgim keldi ko'kda yonma-yon
 Ular bilan uchmoqlik uchun!..

Taqvimga o'q taxlayman endi...

TINISH

Bir kun, qumrim, istig'for o'qib,
 Sovrilishga yetsa-yu kuchim,
 Sadog'imdan o'qlarni to'kib,
 Gul keltirsam unda sen uchun.

Ohularni bir-bir ovutib,
 Qazo topdi desam shikorlar.
 Dasturxonga do'nsa sovutim,
 Xanjarimda so'ysam anorlar.

Sharbat ichsak oq novvot bilan,
 Ko'zalarning qolsa tagi but.
 Qo'zilarga iltifot ila
 Qaytarilsa kosadagi sut.

Bor bo'yicha buralib burg'u,
 Bo'lsa arxar shoxiga libos


Va suhbatga joylasam urg'u,
G'azallardan terib iqtibos.

Ziyofatga qo'shilsa to'rg'ay,
Sen buyursang: Qani, gulla, tosh!
Qo'shgilosmi azaliy sirg'ang,
Qoqigullar ayni tillaqosh.

Sen – yuragim yetgan bulutsan
Sahrosifat sitam dahrida.
Ularnimi?
Bahridan o'tsam
Huvillagan maydon bag'rida.

Uloqtirsa asoni asab,
Chalsa oqshom oqqushlarga nay.
Dubulg'amdan gulkosa yasab,
Tashib tursam sarxushlarga may.

Qazo topdi desam shikorlar...



YANA TUN

Chiqib ketging kelmaydi tundan,
 Oromingga quyilsa g'ulg'ul.
 G'urob tomib tursa uzumdan,
 Yonginangda kuylasa bulbul.

Peshayvonda qatiq to'rva ham
 Satilga yosh yo'llaydi – zardob.
 Hayotidan mamnunmi karam,
 Ichgani nur, kiygani zarbof?!

Ruboiylar yoqib ichingni,
 Yuragingni sharshara qilsa,
 Qurbaqalar yolg'izligingni
 Tomog'ida g'arg'ara qilsa.

Shovullasa daryo jununvash,
 Yoshligini qo'msab yotsa tol,
 Vujudingni o'langa o'xshash
 Alangalar chulg'asa alhol,

Chiqib ketging kelmaydi tundan!
 Hayrat bosib kelar balandroq.
 Chiqib ketging kelmaydi chindan,
 Evoh, buning chorasi qandoq?!

KEZIB...

Shamdek miltillaydi ko'zlaring...
 Nafasim
 o'chirib qo'ymasaydi deyman!
 Tonggi yomg'irdayin shivirlab
 Sochlaringga she'rlar o'qiyman.
 G'amgin bedazorlar shalabbo...
 Qushlar quchoqlashib panada
 Qaynatur tumshuqda murabbo.
 Suhbat shirinlashur yana-da...

Kezdim.
 Etigimdan o'tmadi
 Maysalarga to'kilgan izhor.
 Barra bedalarni tush ko'rib
 Yurgan
 Yuragim bir to'yi-ib o'tladi!
 Endi u pishqirib-pishqirib,
 Kutar ko'pkarini intizor...

Tag'in
 Shamdek miltillaydi ko'zlaring,
 Shundoq yuragimning yonida...
 Ammo...
 Shashtim maqsadimga munosib,
 Achinmasman baxtinga aslo,
 Bir juft shamni bag'rimga bosib,
 Yashab o'tsam yomg'irlar aro!..

OV

Nayzasini o'qtalib suvga,
 hushyor turgan habash kabi och
 ko'zim boqar,
 ko'zingdan izlab
 yuragingni tutmoqqa iloj.
 Uzun-uzun izhorlarimning
 uchlari – tig',
 qayrilgan chunon.
 Har kun ilib bir misra xo'rak,
 uzataman.
 Ishtahang yomon...
 O'zim sho'ng'ib ketaman
 va puch
 maqsadimga berarsan firib.
 Ilinsang-chi, tillabadan o'ch,
 meni dengiz tark etmay turib?!
 Tutayverar namiqqan g'azab,
 Ilinsang-chi, yonayotgan ruh!
 Alvon kuyga butun ummonni
 Bo'yab qo'ydi bir tomchi anduh?!
 O! Yig'lading...
 Meni to'fonlar
 Uloqtirdi.
 Yana yuksalading.
 Hushsizlikdan o'zimga kelsam,

tipirchilar
 qo'limda
 QALBING...

QURALAYLAR

Xonishimda mojaro,
 Og'ushimda chirmovuq,
 Tuzatgani bir xato,
 Uzatgani xurmo yo'q,
 Ko'zlarimga, sanubar,
 Bosmading bir bora lab,
 Quralaylar ketdilar
 Qarag'aylar oralab...

Har na dedim, bu taqdir,
 U ham o'zicha haqdir.
 Visol – qalin bir kitob,
 Balki, ikki varaqdir.
 Shu so'qmoqdan o'tdilar
 Ko'zlaringni qoralab,
 Quralaylar ketdilar
 Qarag'aylar oralab...

Telba dilim nechun g'ash –
 Garchi menga yor eding.

O, ularning jununvash
 Ko'zlarida bor eding.
 Mung'ayib ranjitdilar
 Hushni pora-poralab,
 Quralaylar ketdilar
 Qarag'aylar oralab...

Kiyiklarni yupatding
 Giyoh tutib qo'lingda.
 Qancha she'rimni otdim
 Siyoh yutib yo'lingda.
 Men, mayli, ular yerga
 Qarab kulgisi keldi.
 Har biri tanti, erka
 Bolang bo'lgisi keldi...
 Qolganidan bexabar
 Turaverdim mo'ralab,
 Quralaylar ketdilar
 Qarag'aylar oralab...



* * *

Yakkashoxlar anqoga qo'shni,
 O'rdakchalar irkit, badarg'a.
 Yulduz
 Suvga yiqilib tushdi,
 Maftun bo'lib qurbaqalarga.
 May
 Boshidagi pushti chambarni
 Buzoqlarga yedirtdi g'amgin.
 Qidiraman mushki anbarni,
 Kiyiklarning kindigida – kin...
 Sutlar qora.
 So'g'onlar chirik.
 Qurtlar po'stloq ichinda nobud.
 Odamovi odamgarchilik
 Kelajakka yo'nmoqda tobut.
 Yillar uchar –
 Patlari sovuq,
 Uchar ular Mahsharga dovur.
 Gul istayman, yo'qol, chirmovuq,
 Yo'qol, itdek xunuk tasavvur!
 Nur istayman turib Hisorda,
 Na Musoman, na ostimda Tur.
 Ammo aniq kutaman yordam,
 Nur istayman, nur istayman, nur!
 Undan tortib rubobimga tor,

Chuqur singib vujud qa'riga,
O'z o'qidan chiqqan ruhki bor,
Qaytaraman o'zanlariga.
Shunda mastlik bergusi chog'ir,
O'z-o'zidan kechar bezaklar.
Bir quyilsin sahroga yomg'ir,
Toki yonib ketsin kesaklar.

HUMAYRO

Shakkok fusun, sorig' og'och,
Insofga kel, imkon bo'lay!
Tashqari qor. Eshikman, och –
Tarsoginam, imon bo'lay!

Ko'zing billur – moviy o'lim,
O'zing zebo, nozing zulum,
Ko'ngling sari tushdi yo'lim,
Oq yo'l tila, mehmon bo'lay!

Kulgichingda umrim unar,
Yig'layursan, bu ne hunar?
Chog'ir uzat, boyla zunnor,
Shartingni ayt, San'on bo'lay!

So'zlashurmiz ko'zing va men,
Uxlamay tur, bo'lma zomin,

Qo'nar bo'lsang, mushtoq zamin,
Uchar bo'lsang, osmon bo'lay!

Kimga xotin yukli hilol?
Yarmi loyqa, yarmi zilol.
Mudom o'ttiz yorug'da qol,
Mayli, zulmat tomon bo'lay!

Bo'zlashlaring jonni tig'lar,
Ko'z yoshlaring tanni tig'lar,
Bag'ringga bos, quchib yig'la,
Parcha-parcha Turon bo'lay!

Shakkok fusun, sorig' og'och,
Insofga kel, imkon bo'lay!
Tashqari qor. Eshikman, och –
Tarsoginam, imon bo'lay!



MUNDARIJA

Usmon Azim. Soʻzning rosti	3
Sahifalar.....	4
“Yo ota, deb koʻtar, ey Yodgor...”	5
“Yigʻildi, sochildi...”	7
Bolalik.....	8
Xiva.....	10
“El bilan koʻpkari borgan dam...”	11
Vahima.....	13
Yolgʻizlik.....	14
“Sollanar...”	15
“Siz yongʻirni yaxshi koʻrasiz...”	16
“Oʻtar oʻz baxtining bahridan...”	17
“Bir harir zamharir kezar yurakda...”	19
“Quyundek aylanur idishda qahvo...”	20
Magʻlub dargʻa.....	21
Bars.....	22
“Koʻrdingizmi...”	24
“Parvoz etar momaqaymoqlar...”	25
“Sogʻinganda...”	26
“Ruhimiz chirmashib nuri hilolga...”	28
“Sening koʻzyoshlaring...”	29
“Vaziyat ustiga...”	30
“Quyosh ketganida gʻurubga enib...”	31
Tanosib.....	32
“Pastlab uchar burgutlar...”	34
“Sen shamol shavqini his etganmisan?”	35
“Gar kishan taqsalar qoʻlimga bir kun...”	37
“Kipriklaring ogʻirlashdi jim...”	38
“Shogirdi quchoqlab, yiqitib berdi...”	39
“Qaltiraydi qarshimda yanvar...”	40
“Sen – osmonsan...”	41
“Bir yerda tinch vatan qurmoqchi edim...”	42
“Qaydanam adashib keldi shaharga...”	43

"Qo'shotar miltig'i tushdi yelkadan..."	44
"Soyda hilol suzgani-suzgan..."	46
"Siz..."	47
"Og'ir jang ostidan qaytganda zobit..."	48
"To'lg'onadir bir kosa ummon..."	49
O'zgarish	50
Ruhimqushlari	51
Tinish	52
Yana tun	54
Kezib	55
Ov	56
Quralaylar	57
"Yakkashoxlar anqoga qo'shni..."	59
Humayro	60



Shahriyor Shavkat
(Shahriyor Ibrohimov)
1998-yil 23-yanvarda Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida tug'ilgan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi. 2019-yilda Respublika Zomin seminarida ishtirok etgan. Ijodidan namunalar matbuotda e'lon qilib kelinadi.

SHAHRIYOR SHAVKAT

RUHIM QUSHLARI

"ADABIYOT"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6779-2-0



9 789943 677920